

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Samarqand viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 57 452,0 mlrd so‘mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 102,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 55 686,3 mlrd so‘mni (102,7 %), o‘rmon xo‘jaligi 1 329,7 mlrd so‘mni (103,0 %), baliqchilik xo‘jaligi 436,1 mlrd so‘mni (107,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,3 % ni tashkil qildi.



57 452,0
mlrd so‘m




01 55 686,3 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar


02 1 329,7 O‘rmon xo‘jaligi

03 436,1 Baliqchilik xo‘jaligi

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot
(xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati**



**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd so‘m**



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (6 955,9 mlrd so‘m) va Ishtixon (5 753,0 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on (223,6 mlrd so‘m) va Samarqand (367,5 mlrd so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

Hosil yig'imi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 15 577,6 ming tonna sabzavot yetishtirildi.

2024-yilning yanvar-dekabrda xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

	Fermar xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati, foizda	ming tonna	o'sish sur'ati, foizda	ming tonna	o'sish sur'ati, foizda
Sabzavotlar	869,3	96,7	681,6	107,2	26,6	64,2




Dehqonchilik

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi **29 566,4** mlrd so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 101,9 foizni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,5 foizni tashkil qildi.




Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




**yetishtirilgan mahsulotlarning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,
% da**



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 15 577,6 ming tonna (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,1 foizga ko'p) sabzavotlar yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmining 43,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

**Samarqand viloyati bo'yicha
sabzavotlar
yetishtirish hajmi, tonna**



Chorvachilik




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi **25 659,0** mlrd soʻmni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,5 foizni tashkil qildi.

Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 46,5 foizni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 326,9 ming tonna (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,1 foiz koʻp) goʻsht yetishtirildi, 1 456,0 ming tonna (3,8 foiz koʻp) sut sogʻib olindi, 1 344,6 mln. dona (4,0 foiz koʻp) tuxum olindi va 19 876,3 tonna (7,4 foiz koʻp) baliq ovlandi.




Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 326,9 ming tonna (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,1 foizga ko'p), go'sht yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 79,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.

Samarqand viloyati bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming tonna




Sut


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati, % da



Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 456,0 ming tonna sut (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,8 foizga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 90,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Samarqand viloyati bo'yicha yetishtirilgan sut hajmi, ming tonna




Hajmi, mln. dona




Tuxum

O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 344,6 mln dona tuxum (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,0 foizga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 47,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

Samarqand viloyati bo'yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, mln dona




Baliq


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 19,3 ming tonna (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 7,4 foizga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 81,1 foizi fermer xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Samarqand viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,6 foizi fermer xo'jaliklari ulushiga, 93,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 85,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari 5,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 20,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 76,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 39,3 foizi fermer xo'jaliklariga 37,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 23,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.




Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 765,8 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 31,7 ming boshga (1,8 %) ko'paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 93,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

**Samarqand viloyati bo'yicha
yirik shoxli qoramollarning bosh soni, ming bosh**






Sigirlar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 756,0 ming boshga yetdi.
- sigirlarning bosh soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 5,8 ming boshga (0,8 %) ko'paydi.
- sigirlar bosh sonining 92,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.


Samarqand viloyati bo'yicha sigirlarning bosh soni, ming bosh




Qo‘y va eshkilar



O‘sish sur‘ati, % da




Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi





2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va eshkilarning umumiy bosh soni 2 724,2 ming boshga yetdi.
- qo‘y va eshkilarning bosh soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 64,6 ming boshga (2,4 %) ko‘paydi.
- qo‘y va eshkilar bosh sonining 85,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.


Samarqand viloyati bo‘yicha qo‘y va eshkilarning bosh soni, ming bosh



Otlar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- otlarning umumiy soni 30 647 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 763 boshga (2,6 %) ko'paydi.
- otlar bosh sonining 76,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Samarqand viloyati bo'yicha otlarning bosh soni, bosh

